



YANGI O'ZBEKISTONDA INSON OMILI

Qurbonova Muhabbat Avazovna

¹Andijon davlat tibbiyot instituti Ijtimoiy gumanitar fanlar
kafedrası o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5903108>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10- yanvar 2022

Ma'qullandi: 15 - yanvar 2022

Chop etildi: 20 - yanvar 2022

KALIT SO'ZLAR

Yangi O'zbekiston, yangi
imkoniyatlar, inson omili,
tibbiyot sohasi,
rivojlanish,
raqamlashtirish.

ANNOTATSIYA

Jamiatimiz hayotidagi siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarni butunlay o'zgargan. Mamlakatimizni yangi, demokratik qiyofada jumlai jahonga tanitayotgan ushbu davrda O'zbekiston tanlagan yo'l tinchlik va barqarorlik, shuningdek, milliy taraqqiyotni yuqori bosqichga olib chiqish hisoblanadi. Ayni so'nggi yillar davomida mamlakatimiz dunyo hamjamiyatida o'zining milliy taraqqiyot yo'li va strategik iqtisodiy ijtimoiy hayotiy tajribalari asosida rivojlanib bormoqda. Mamlakatimizda so'nggi yillarida sog'liqni saqlash sohasini modernizatsiya qilish borasida olib borilgan islohotlar jarayonida davlat tibbiyot muassasalari bilan bir qatorda xususiy tarmoq faoliyatini rivojlantirishga ham alohida ahamiyat qaratildi. Ushbu maqolada, Yangi O'zbekistonda inson omili, shuning insonlar salomatligini saqlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida fikr va mulohazalar qilinadi.

“Yer yuzida millionlab odamlarni hayotdan olib ketgan koronavirus pandemiyasi va uning oqibatida kelib chiqqan global iqtisodiy inqiroz hanuz davom etmoqda. Pandemiya qachon tugaydi va undan keyingi hayot qanday bo'ladi – buni hech kim oldindan bashorat qilolmaydi. Afsuski, pandemiyaning salbiy ta'siridan O'zbekiston ham chetda qolayotgani yo'q. Bu xatarli kasallikka qarshi kurash, shunday og'ir sharoitda yashash va mehnat qilish bizdan katta kuch va mablag', yuksak iroda va qat'iy intizomni talab etmoqda.”

**O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.
M. Mirziyoyev**

O'zbekiston hayotida so'nggi yillarda katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bugun Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Inson huquqlari bo'yicha xalqaro tuzilmalar minbarlaridan O'zbekistonda inson huquqlari va ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash mumkin. O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgan kundan boshlab milliy taraqqiyotning rivojlanishi uchun muhim strategik ishlarni amalga oshirib bormoqda. Milliy taraqqiyot keng qamrovli tushuncha bo'lib, u iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarda millatning rivojlanganlik darajasini ifoda etadi. Ularning birini ikkinchisidan ajratib



bo'lmaydi: iqtisodiy farovonliksiz siyosiy sohada o'zgarishni yasash, o'z navbatida, siyosiy jabhada belgilangan vazifalarni iqtisodiyotda yuzaga keladigan inqirozlar yoki muammolar sharoitida to'liq amalga oshirib bo'lmaydi. Chunki ularning barchasi inson omili, uning dunyoqarashi, intellektual salohiyati, intilishi, jamiyatda kechadigan jarayonlarga munosabatlari, mamlakat va millat taraqqiyoti yo'nalishidagi faoliyatlariga ko'p jihatdan bog'liq. O'zbekiston Respublikasi milliy koordinatori vazifa va vakolatlari yuklatilishi, mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilash bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilishi idoraning maqom hamda nufuzini yana-da oshirishga xizmat qiladi. Demak, milliy taraqqiyotga to'siq bo'lib kelayotgan korrupsiyani bartaraf etish yo'lida dadil qadamlar tashlanmoqda.

Ma'lumki, "yangi" degan so'zning biz uchun alohida ahamiyati bor. O'tgan asrning boshlarida yurtparvar, millatparvar bobolarimiz "jadidchilik", ya'ni, yangilanish va erkinlik, adolat va tenglik, ilm-ma'rifat va milliy o'zlikni anglash g'oyalarini bayroq qilib, kurash maydoniga mardona chiqqanlarini barchamiz yaxshi bilamiz. Bu ulug' zotlarning maqsadi – jaholat va qoloqlik girdobida qolib kelayotgan Turkiston xalqini dunyoviy ilm-fan, ilg'or kasb-hunarlar bilan qurollantirib, umumbashariy rivojlanish yo'liga olib chiqishdan iborat edi. Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usuldagi maktablar, teatr, kutubxona va muzeylar, gazeta va jurnallar, Turkiston farzandlarini chet ellarga o'qishga yuborish maqsadida tuzilgan xayriya jamiyatlari xalqimizni

necha asrlik g'aflat uyqusidan uyg'otdi, milliy ozodlik harakati uchun beqiyos kuch berdi. Yangi O'zbekiston deb atalishi qaysidir ma'noda butun boshli mamlakatimizda deyarli barcha soha va tarmoqlarni qamrab olganda holatda katta o'zgarishlar va yangilanishlarga bo'lgan ulkan maqsadning debochasi deb bimalol aytishimiz mumkin.

Xususan, mamlakatimizda ham tibbiy, siyosiy, ham iqtisodiy islohotlarni hayotga tatbiq etish paytida korrupsiya jiddiy to'siq bo'layotgani jamoatchilikni tashvishga solmoqda. Shu bois Yurtboshimiz boshlab bergan jamiyatni demokratlashtirish, modernizatsiyalash jarayonlari davom etmoqda. Yangi O'zbekiston bu tom ma'noda rivojlanish va milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarilayotgani deb bimalol ayta olamiz. Bu borada mamlakatimiz bo'ylab har bir soha va tarmoqlarda ishlar amalga oshirilmoqda. Dastur va rejalar aniq, faqat ularni amalda bajarish vazifa qolgan xolos. Yangi tibbiyot inshootlari barpo etadigan va mavjudlarini rekonstruksiya qiladigan xususiy tibbiyot muassasalari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida muhandislik-kommunal infratuzilma obyektlaridan to'siqlarsiz foydalanish, bunday tadbirkorlarga yer uchastkalari, bino va xonalar ajratish borasida mahalliy davlat hokimiyati organlariga tegishli vazifalar topshirildi. Xususiy tibbiy xizmatlarni qishloq joylar va olis tumanlarda ko'rsatish uchun yer uchastkalari ajratishda qo'shimcha imtiyozlar berilishi belgilandi. Qishloq joylarda va chekka tumanlarda tibbiy xizmat ko'rsatish sohasida tashkil etiladigan yangi mikrofimalar va kichik



korxonalar davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab 10-yil muddatga yagona soliq to'lovidan ozod etiladi. Bunday ezgu ishlar jahon tibbiyotining ilg'or yutuqlarini sog'liqni saqlash tizimida keng tatbiq etish, yurtimizning barcha hududlari, ayniqsa, qishloq joylarda aholiga ko'rsatilayotgan zamonaviy tibbiy yordamni yanada takomillashtirish, el salomatligini asrash, xalqimizning hayotdan rozi bo'lib yashashiga erishishda muhim qadam bo'ladi.

“O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmon asosida 2019 – 2025 yillarda Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish kontseptsiyasi hamda tegishli dastur tasdiqlandi. Bularning barchasi birlamchi tibbiy sanitariya hamda shoshilinch va tez yordam bo'g'inidan tortib, yuqori tuzilmalarigacha ish faoliyatini tashkil etishda asosiy e'tiborni inson omiliga yo'naltirish, tibbiy xizmatlar turlarini kengaytirish va sifatini xalqaro mezonlar darajasiga yetkazish borasida yangi imkoniyatlar yaratib bermoqda. Ma'lumki, kasallikni davolashdan ko'ra, uning oldini olish oila uchun ham, davlat uchun ham samarali va foydalidir. Shu bois mamlakatimizda profilaktik tibbiyot rivojiga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Ayni paytda, tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatishni yaxshilash maqsadida yurtimizda 817 ta qishloq vrachlik punkti, 798 ta qishloq va 178 ta shahar oilaviy poliklinikalarida ayollar maslahatxonalari, qizlar salomatligi xonalari, ijtimoiy dorixonalar, kunu-tun ishlaydigan tez tibbiy yordam shoxobchalari tashkil etildi

hamda 5 ta tor soha mutaxassislarining faoliyati yo'lga qo'yildi.

Yana bir asosiy yo'nalish – reproduktiv salomatlikni, onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha milliy dasturlar amalga oshirilmoqda. Hududlarimizdagi bolalar davolash muassasalarida ilgari mavjud bo'lmagan neonatal xirurgiya, kardioxirurgiya, invaziv xirurgiya, qizlar ginekologiyasi kabi yangi bo'limlarda murakkab davolash amaliyotlari o'tkazilmoqda. Bunday ulug'vor o'zgarishlar yurtimizda xotin-qizlar sog'lig'ini mustahkamlash, onalar va go'daklar o'limining keskin kamayishida muhim omil bo'lmoqda. Shuningdek, patronaj xizmati mutlaqo yangicha asosda yo'lga qo'yildi. Ayniqsa, yolg'iz, keksa, nogironligi bo'lgan, surunkali kasalliklarga chalingan shaxslarni, bo'lajak onalar va bolalarni patronaj xizmatlari bilan to'liq qamrab olish borasida beqiyos ishlar amalga oshirilmoqda. Hamshiralarning uyma-uy yurib, har bir shaxsning salomatligini puxta o'rganishlari tufayli kasalliklarning oldini olish, oilalarda tibbiy madaniyatni yuksaltirish borasida salmoqli yutuqlarga erishilmoqda.

Tarmoqda xususiy sektor ulushini oshirish, davlat-xususiy sheriklik hamda institutsional va huquqiy mexanizmlarning yaratilishi, ularga keng imtiyozlar taqdim etilayotgani natijasida bu yo'nalishdagi shifoxonalar soni 5300 dan oshdi. Shuningdek, qisqa vaqt ichida AQSh, Rossiya, Xitoy, Germaniya, Hindiston, Turkiya, Janubiy Koreya, Isroil kabi xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda 100 dan ortiq zamonaviy xususiy klinikalar ish boshladi. Ayni paytda, mamlakatimizda 7 ta oliy tibbiy ta'lim dargohi va ularning 4 ta filiali,



shuningdek, xorijdagi nufuzli tibbiy-ilmiy muassasalar hamkorligida tashkil etilgan 22 ta xalqaro fakul'tet sohaga malakali va yetuk mutaxassislarni yetishtirib bermoqda. Respublikamiz farmatsevtika sanoati ham izchil rivojlanib, arzon va sifatli dori vositalarini kafolatlangan tarzda yetkazib berish, ularga narx belgilashning ta'sirchan shakllari ishlab chiqilmoqda. Dori-darmonlar va tibbiy buyumlar xarid qilish hamda tibbiyot ob'ektlarini qurish-ta'mirlash ishlariga ajratilayotgan mablag'lar hajmi ham 3 barobarga ortdi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonda milliy taraqqiyot yuklashi uchun avvalo, xalqimizning, mas'ul shaxslar va rahbarlarning qarashlari va fikrlashini o'zgartirish zarur. Davlatimiz tomonidan shifokorlarning zalvorli mehnatini munosib qadrlash, ularning ish

va turmush sharoitlarini yaxshilash, zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlash, moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirishga jiddiy yondashilmoqda. Bu kabi har tomonlama qo'llab-quvvatlash ishlari bundan keyin ham izchil davom ettiriladi. Milliy taraqqiyot masalasi — yurt taqdiri, mamlakat kelajagi uchun har qachongidan muhim hisoblanadi. Sababi yurtimiz aholisi bir asrlik mustamlakachilik davrida yo'qotilgan moddiy hamda ma'naviy boylıklar o'rnini qayta tiklash, iqtisodiyotni rivojlantirish, milliy o'zlikni asrash yo'lida kechayu kunduz mehnat qiladigan davr keldi. Yangi O'zbekistonda milliy taraqqiyot yanada rivojlanishi har bir o'zbekman degan shaxsning yelkasidagi burchi ekanligini anglash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Xalq so'zi" gazetasi 17-aprel 2021-y. <https://xs.uz/uz/post/milliy-taraqqiyot-hamda-beshinchi-hokimiyat-muammo-va-echim>
2. Istiqbolli loyihalar, yangi tashabbus va g'oyalar xalqimiz farovonligining asosidir. <https://www.uzavtoyul.uz/uz/post/istiqbolli-loyihalar-yangi-tashabbus-va-goyalar-xalqimiz-farovonligining-asosidir.html>
3. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. <https://iiv.uz/news/yangi-ozbekiston-demokratik-ozgarishlar-keng-imkoniyatlar-va-amaliy-ishlar-mamlakatiga-aylanmoqda>
4. <https://atm.andmiedu.uz/2017-2021-yillarda-ozbekiston-respublikasini-rivojlantirishning-beshta-ustuvor-yonalishi-boyicha-harakatlar-strategiyasi/>
5. <https://www.taraqqiy.uz/2016/09/taraqqiyot-va-islom/>
6. <https://isrs.uz/oz/ozbekiston-yangiliklari/yangi-ozbekistonning-taraqqiyot-solnomasi>